

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH

Tursunova Saida Isakovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

tel: +998915886422

Nuriyeva Feruza Shohsuvarovna

Termiz davlat pedagogika institutining

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma‘naviy-axloqiy tarbiya haqida umumiy tushunchalar, ma‘naviy axloqiy xulq-atvor, ma‘naviy-axloqiy tarbiya metodlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Axloq va axloqiy ong tushunchalari ma‘nosi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, ma‘naviyat, tarbiya, ma‘naviy axloqiy tarbiya, ma‘naviy-axloqiy tushunchalar, ma‘naviy-axloqiy xulq-atvor, ma‘naviy-axloqiy tarbiya metodlari, Abu Ali ibn Sino, Komenskiy fikricha, ta‘tillar va ularning davomiyligi, farzandlarimizning ilmiy saviyalari, axloqiy fazilatlarini.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma‘naviy -axloqiy tarbiyalash bu murakkab jarayonlardan biri bo‘lib, bola asosan, dastlabki ta‘limni oila muhitida oladi. Tashqi muhitdan to‘plangan bilimlar majmui esa ma‘naviyat va axloqni yuzaga keltiradi. Har xil yoshdagi bolalar ulg‘ayganlari sari tashqi muhitdagi katta yoshdagi kishilarning o‘zini tutishi, xatti-harakatlariga tanqidiy qaraydigan bo‘lib qoladilar. Shu yoshdagi bolalar o‘zlari uchun taqlid qilishga arziydigan kishilarga taqlid qilishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham o‘z ustoziga taqlid qila boshlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rnak bo‘la oladigan kadr bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bolalar yoshligidan axloq-odobni o‘zida shakllantirib boradi. Shu o‘rinda buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy shunday deydi: "Har kimki ilm-hikmatni desa yoshligidan boshlasin, so‘zining ustidan chiqsin. Yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo‘lsin. Ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin". O‘quvchining qay darajada axloqli yoki bo‘lmasam bilimli bo‘lishi uning dastlabki tarbiyasi oila muhitiga bog‘liq. Oilada yaxshi tarbiya ko‘rgan bola ta‘lim olishda ham qiyinchilikka uchramaydi, chunki u o‘zida ta‘lim axloq va ma‘naviyat kabi tushunchalarni o‘zida jamlagan bo‘ladi. Axloq va ma‘naviyat chuqur ichki o‘zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma‘naviyat individ mansub bo‘lgan guruhlar axloqi ta‘sirida yuzaga keladi, axloq esa, o‘z navbatida, guruh a‘zolari bo‘gan individlar ma‘naviyatining o‘zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axloq - ma‘naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi.

Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonunqoidalar majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchun emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Ezgulik tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Axloqiy ongni o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi. Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan. Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin. Me'yor - bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorining ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi. Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'naviyaxloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Buyuk vatandoshimiz alloma, tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasi qanday bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasbhunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so'zlash va odamlar bilan muomala

qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega». O‘g‘il-qizlarining zehni o‘shini, aql-idrokli, fikrlovchi bo‘lib ulg‘ayishini istagan ota-onalar ularga turli ibratli hikoyalarni yoshligidan boshlab Qur‘oni karim qissalaridan, payg‘ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o‘qib berish, so‘zlash yoki ularning o‘zlariga o‘qitish ham shart. Bu bilan bolalarning zehni o‘sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi, asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulqu-odobidan bahramand bo‘ladi. Ruhiiy tarbiyasini yaxshilash uchun yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga yoki suzish, yengil atletika, stol tennisi, futbol kabi sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish, jalb etish mumkin. Farzand ulg‘ayish jarayonida hamma narsani asosan atrofidagi kattalardan o‘rganadi. Ulardan ibrat olib, ularga taqlid qilib, hayotiy tajriba ortira boradi. Endi o‘zingiz qo‘pol va badxulq bo‘lsangiz-u, bolangizni chiroyli xulqli va odobli qilib tarbiyalayman deb o‘ylasangiz, xato qilasiz. Agar o‘zingiz cheksangiz yoki ichsangiz-u, farzandingizni bu yomon illatlardan qaytaraman desangiz, umidingiz va harakatlaringiz puchdir. O‘zingiz yolg‘on gapiruvchi yoki aldoqchi ekansiz, bolangizdan rostgo‘ylik va omonatdorlik kutib ovora bo‘lmang. Buyuk chex olimi, pedagog Ya.A.Komenskiy har bir bola tarbiyata‘lim olishi lozimligini o‘z asarlarida keltirib o‘tgan. Komenskiy fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iborat bo‘lib, uni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirish mumkin. U bolaga samarali pedagogik ta‘sir ko‘rsatish uchun yosh xususiyatini hisobga olish lozimligini ta‘kidlaydi. Komenskiy bolalarning o‘qish yoshini ona maktabi (tug‘ilgandan 6 yoshgacha), xalq, maktabi (6—12 yosh), gimnaziya (12—18 yosh), akademiya (18—24 yosh) kabi bosqichlarga bo‘ladi. Komenskiy jahon ta‘limi tarixida birinchi bo‘lib ta‘limning sinf-dars tizimini ishlab chikdi, ta‘lim beriladigan vaqtning davomiyligini, bilim oladigan o‘quvchilar sonini, yoshini belgiladi. Darsning rejalashtirish, maqsadga muvofiq olib borish, ta‘lim beriladigan vaqtni o‘quv yili, choraqlar hamda o‘qish kunlariga ajratish yo‘llarini ko‘rsatdi. Ta‘tillar va ularning davomiyligi, kundalik va yillik o‘quv soatlari mikdorini belgilab berdi. Uning pedagogik karashlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Bu tarixiy axborotlarni keltirishdan maksad buyuk allomalarning ta‘lim va tarbiyani o‘z vaktida olib borish taqoza etishini isbotlab berganidir. Turmush qurgan er-xotin oldida eng sharaflari va muhim ish: farzand ko‘rish va unga kelajakda millatiga, otaonasiga, jamiyatiga manfaat keltiradigan qilib, munosib tarbiya berish vazifalari turadi. Barchamizga ma‘lumki, bugungi kun yoshlari bizning merosxo‘rlarimiz va kelajakda hayotning barcha sohalarida boshlangan katta-kichik ishlarimizni davom ettiruvchi o‘rinbosarlarimizdir. Har bir davrning o‘ziga xos tabiati va sharofati bo‘lganidek, fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan asrimizda

yoshlar tarbiyasi ham alohida o‘ziga xoslik kasb etadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasb-hunari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham ko‘payib borishi zarur. Yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, birinchi navbatda har bir otaonaning muqaddas burchlaridan hisoblanadi. Har bir inson o‘z farzandi yaxshi insonbo‘lishini orzu qiladi. Katta bo‘lgach, jamiyatda o‘ziga munosib o‘rin egallab, Vataniga sodiq, elu xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo‘lishini niyat qiladi. Onaning burchlaridan yana biri farzandga mehribonlik ko‘rsatib, uni aziyat beradigan turli narsalardan saqlagan holda, vaqtida oziqlantirib, yuvib-tarab, toza kiyintirib, kasal bo‘lishiga yo‘l qo‘ymay, parvarishlashda erinchoqlik yoki dangasalik qilmay, doimo hushyor va xabardor bo‘lishidir. Farzandlarga mehribonlik, rahmshafqat ko‘rsating, ular bilan yumshoq muomalada bo‘ling, sababsiz tergamang. Tez-tez ularni quchoqlab, bosh-ko‘zini mehr bilan silab turing. Ular bilan muntazam birga bo‘lishga harakat qiling: mashg‘ulotlar o‘tkazing, o‘yinlariga aralashib turing, hazilmutoyiba qiling, nutqini o‘stirish bilan shug‘ullaning. Bolasini kaltak vositasida tarbiya qilishni o‘ylaganlar qattiq adashadi. Chunki farzand yaxshi so‘zning gadosi, yomon gapirish, kaltaklash bolani oiladan, ota-onadan bezdiradi, xolos. O‘n yoshga yetgan o‘g‘il va qiz bolalar alohida yotqiziladi, chunki aksincha holat fitnaga sabab bo‘lib qolishi mumkin.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog‘liq vazifani shart qilib qo‘yadi: birinchidan, jamiyat ongida me‘yorlar, tamoyillar. ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rmishida aks etadigan asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya‘ni boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e‘tiqod, ma‘naviy moyilliklar, histuyg‘ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma‘naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. O‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma‘naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqinitarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o‘quvchilarda axloqiy his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko‘mkmalarini shakllantirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma’naviyaxloqiy tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi; ta’lim-tarbiya ishiga o’quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma’naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog’lab olib borish; o’quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta’sirchanligi; oila, ta’lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi; o’quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko’zda tutish. Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasida subyekt-subyekt munosabatlarining o’rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo’lishi uchun psixik jarayonlarga (inotivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta’sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviyaxloqiy tarbiya metodlari deganda, o’quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy histuyg’ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig’indisidir. Ma’naviyaxloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin: Ma’naviy-axloqiy ongning shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o’g’it, ko’rsatma, namuna va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o’rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar. Ma’naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag’batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev.”Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016,14 – bet
2. Insonni tarbiyalamoq– kelajakni tarbiyalamoq. Tursunova Saida Isakovna Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6830668>
3. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T. «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil
4. J.Hasanboyev, X.A.To‘raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O‘.Usmanov (2011) Pedagogika.
5. A.Fitrat “Rahbari najot” asaridan. “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” 2- jild. T.: O‘qituvchi, 1999, 56 - bet.
6. Azizova 3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kugirchok teatri vositasida axlokiy-estetik sifatlarni shakllantirish. - T.: ADU, 2010

7. Bolajon tayanch dasturi. ~ T.: “Sano-standart”, 2010
8. Umarova M. Bolalarda atrof muxitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish / Metod, kull. - T., TDPU, 2007.
9. A.Q.Munavvarov, M.Ma’murov “Yaproq ildizidan quvvat oladi”. T.: O‘zbekiston, 1990, 32 - bet
10. E.Yusupov. “Ma’naviy kamolot omillari”. T.: Universitet, 1995, 3 - bet
11. С.И.Турсунова. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.
<https://zenodo.org/record/6569077#.Yorxx6hBwdU>
12. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy
Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz
«ЧЕЛОВЕК И ВОСПИТАНИЕ – ВОПРОС ОБЩЕСТВА»м Турсунова Саида
Исаковна Термезского государственный педагогический институт.
преподаватель кафедры Начального образования
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6569077>